


2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil yanvar oyida viloyatimizda 434 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 139 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 014 ta (26,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14 379 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga 14 379 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 30,0 % savdo, 13,0 % sanoat, 9,6 % qurilish, 12,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,3 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 22,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlikda		01.02.2020 yil	
	01.02.2019 y.	01.02.2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	11 365	14 379	126,5	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 412	1 786	126,5	12,4
Sanoat	1 390	1 866	134,2	13,0
Qurilish	1 072	1 385	129,2	9,6
Savdo	3 018	4 319	143,1	30,0
Tashish va saqlash	593	621	104,7	4,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	654	895	136,8	6,2
Axborot va aloqa	166	188	113,3	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	133	159	119,5	1,1
Boshqa turlari	2 927	3 160	108,0	22,1


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 234 ta), Sirdaryo (2 171 ta), Sayxunobod (1 166 ta) va Guliston (1 089 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (336 ta), Sardoba (624 ta) hamda Oqoltin (701 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 13 538 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 930 ta (27,6 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 29,9 % savdo, 13,1 % sanoat, 9,8 % qurilish, 12,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 22,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3 961 ta), Sirdaryo (1 956 ta), Sayxunobod (1 134 ta) Boyovut (1 072 ta) va Mirzaobod (1 062 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (310 ta), Sardoba (602 ta) hamda Oqoltin (677 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil yanvar oyida 434 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 47,1 foizga ko'pdir.


Yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning 2016-2020-yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (96 ta), Yangiyer shahri (43 ta), Sirdaryo (60 ta) va Boyovut (50 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (9 ta), Xovos (18 ta) hamda Guliston (23 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.



**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (285 ta), sanoat (40 ta), qurilish (19 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (28 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3 ta), axborot va aloqa (2 ta) hamda tashish va saqlash (2 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**Tijorat korxonalari***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2020-yil 1-fevral holatiga 11 433 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar–2 982 ta, oilaviy korxonalar-196 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–7 952 ta va boshqalar-303 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)***Mas'uliyati cheklangan jamiyati****Xususiy korxonona****Oilaviy korxonona****Unitar korxonona****Aksiyadorlik jamiyati****Boshqalar****Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 158 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 ta ga yoki 41,1 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 158 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (53 ta), Guliston shahri (36 ta), Yangiyer shahri (20 ta) va Sayxunobod (10 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami esa Shirin shahri (4 ta), Guliston (4 ta) hamda Oqoltin (3 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 105 tasi qo'shma korxonalar, 53 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	158	100,0
Oqoltin tumani	3	1,9
Boyovut tumani	6	3,8
Sayxunobod tumani	10	6,3
Guliston tumani	4	2,5
Sardoba tumani	6	3,8
Mirzaobod tumani	9	5,7
Sirdaryo tumani	53	33,5
Xovos tumani	7	4,4
Guliston shahar	36	22,8
Shirin shahar	4	2,5
Yangiyer shahar	20	12,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11 385 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-fevral holatiga qaraganda 33,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 446 tasi (30,3 %) Guliston shahri, 1 690 tasi (14,8 %) Sirdaryo, 958 tasi (8,4 %) Sayxunobod hamda 903 tasi (7,9 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11 385 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4 039 tasi (35,5 %) - savdo, 1 746 tasi (15,3 %) - sanoat, 1 318 tasi (11,6 %) - qurilish, 1 613 tasi (14,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 839 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 568 tasi (5,0 %) - tashish va saqlash, 166 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, 108 tasi (0,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 988 tasi (8,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar oyida 424 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 53,6 foizga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (91 ta), Yangiyer shahri (43 ta), Sirdaryo (57 ta) va Boyovut (50 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (9 ta), Guliston (23 ta) hamda Xovos (17 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (285 ta), sanoatda (40 ta), qurilishda (19 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (28 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta), axborot va aloqada (2 ta) hamda tashish va saqlashda (2 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-fevral holatiga 210 tani tashkil etib, ulardan 196 tasi yoki 93,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 55,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,3 % yoki 81 tasi sanoat, 17,3 % yoki 34 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,3 % yoki 32 tasi savdo, 19,4 % yoki 38 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,2 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarni soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	8	100,0
Oqoltin tumani	-	-
Boyovut tumani	-	-
Sayxunobod tumani	-	-
Guliston tumani	2	25,0
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	1	12,5
Sirdaryo tumani	1	12,5
Xovos tumani	-	-
Guliston shahar	3	37,5
Shirin shahar	-	-
Yangiyer shahar	1	12,5

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %****Savdo****Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar****Sanoat****Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi**

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 12,5 % yoki 1 tasi sanoat, 37,5 % yoki 3 tasi savdo, 37,5 % yoki 3 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda 12,5 % yoki 1 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi Tel:(67)-225-31-00**